



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI  
HAY’AT YIG‘ILISHI BAYONI**

2026-yil 18-aprel

№ 7

Toshkent sh

**Hay’at raisi** O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri Sh.Xamrayev  
**Ishtirok etdilar:** Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev, M.Karimov,  
D.Xodjiaxmedov, A.O‘razkeldiyev, M.Nadjimov

**Qatnashganlar:**

**Respublika studiyasida:** O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hay’at a‘zolari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari, Ommaviy axborot vositalari xodimlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

**Hududiy studiyalarda:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, “Suvqurilishinvest” hamda tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari direktorlari va “O‘zsuvqurilish” AJ tarkibidagi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

Hay’at raisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan hay’at yig‘ilishi qatnashchilarini tanishtirdi va muhokamaga qo‘ydi. Yig‘ilish kun tartibi va ish reglamenti hay’at a‘zolari tomonidan to‘liq ovoz bilan tasdiqlandi.

**I. Vazirlik tizimida 2026-yilning I choragi davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda joriy yilga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar to‘g‘risida**

(Xamrayev, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Karimov, Taxirov, Fayzillayev,  
Turdiyev, Siddiqov, Sadinov, Rizzayev, Radjabov, Alimov, Ataqulov,  
Qurbonov, Tursunov, Nurmetov, Xamrayev)

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri Sh.Xamrayev, Vazirning birinchi o‘rinbosari - Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev, M.Karimov va hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari tomonidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, hisobot davrida qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-sonli Farmonlari bilan 2026-yilga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar

va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

### **Qaror qildi:**

1. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan joriy yilning I choragiga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar **qoniqarsiz deb topilsin.**

2. Vazirlar Mahkamasining 15-apreldagi "2026-yil yanvar-mart oylarida "Ijro.gov.uz" tizimi orqali nazoratga olingan Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va bayonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari, topshiriqlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosini ta'minlash natijalari hamda 2026-yil aprel oyi uchun belgilangan topshiriqlarning ijro etilishi to'g'risida"gi 34-sonli Rayosat majlisi bayoni **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

Mazkur yig'ilish bayonining 5-bandi bilan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish investitsiyalarni jalb qilish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan vazifalarga mas'uliyatsizlik bilan yondashgani, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va islohotlarning joylargacha yetib borishida jadallashtirish bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishda ishni to'g'ri rejalashtirmagani uchun Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarlari O'.Sheraliyev va M.Karimovlarning **qattiq ogohlantirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

3. Vazirlikning 2026-yil 6 apreldagi 91-sonli buyrug'i bilan:

Vazirning birinchi o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev va M.Karimovlarga Davlat rahbari va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar hamda 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashayotganliklari hamda vazirlik markaziy apparati hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida ijro intizomiga rioya qilish borasida talabchanlikni susaytirib yuborganligi uchun **so'nggi marotaba ogohlantirish** e'lon qilinganligi;

Davlat rahbari va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar, 2025-2026-yillarga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta'minlamaganligi hamda ijro intizomiga rioya qilmaganligi uchun Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori v.b S.Astanov, Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b N.Xo'jaqulov, Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boshqarmasi boshlig'i v.b D.Kdirbayev, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i v.b A.Tagayevlarga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq "**hayfsan**" e'lon qilinganligi;

Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamentining joriy yil 1-apreldagi 11-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi 330-son hamda 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-393-son qarorlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlamasdan mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yganligi uchun "Qoraqalpog'istonsuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori v.b A.Kaipovga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq "**hayfsan**" e'lon qilinganligi;

Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining joriy yil 13-apreldagi 27-sonli buyrug'i bilan Prezident Administratsiyasi rahbari o'rinbosarining 2026-yil 27-martdagi 5-sonli bayonida qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarga yo'l qo'yanligi, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilmaganligi, Davlat rahbari va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar, 2025-2026-yillarga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta'minlamaganligi hamda ijro intizomiga rioya qilmaganligi uchun Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Nasos stansiyalaridan foydalanish boshqarmasi boshlig'i O.Abdullayevga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq **"hayfsan"** e'lon qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlariga Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan 2026-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini kechiktirib bajarish, shuningdek, belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlanmaslik holatlaridan tegishli xulosa chiqarishi, shaxsiy mas'uliyat va javobgarlikni, ijro intizomiga qat'iy va so'zsiz rioya etmaslik holatlari uchun **intizomiy jazo muqarrarligini his etgan holda faoliyatini tashkil etishi uqtirib o'tilsin.**

5. Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlamaganligi uchun "Farg'onasuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori O.Abdullayevga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq **"hayfsan"** e'lon qilinsin.

Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xo'jaqulov O.Abdullayevga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazoni rasmiylashtirish bo'yicha **2 kun muddat ichida "Intizomiy jazo choralari qo'llash haqida"** buyruq qabul qilsin va buyruq nusxasini vazirlikka taqdim qilsin.

Suv omborlarining texnik holatini yaxshilash, ularning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta'minlash hamda suv omborlariga mutaxassislarini ishga qabul qilish bo'yicha topshiriqlar ijrosiga mas'uliyatsizlik bilan qaraganligi uchun Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi boshlig'i I.Qurbonov, Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i v.b J.Rizzayev, Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i v.b B.Alimov, Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i M.Turdiboyev, Farg'ona vodiysi magistral kanallaridan foydalanish boshqarmasi boshlig'i A. Todjialiyevlarga **so'nggi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin.**

Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan suv tejevchi texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan 2026-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashayotganliklari uchun Qarshi, Mirishkor, Muborak, Nishon, Kasbi, Yakkabog', To'raqo'rg'on, Ishtixon, Paxtachi, Toyloq, Qiziriq, Sariosiyo, Sardoba, Xovos, Beshariq, Buvayda, Yo'zyovon, O'zbekiston, Farg'ona, Rishton, Dang'ara, Yangibozor, Qo'shko'pir, Tuproqqal'a, Xiva, Yangiariq, Yangibozor, Tuproqqal'a, Urganch va Gurlan tumanlari "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi rahbarlariga **so'nggi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin.**

**Belgilab qo'yilsinki,** suv tejevchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha 2026-yil uchun belgilangan reja-prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida bajarmagan irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i, ularning birinchi o'rinbosarlari hamda tumanlar "Suv yetkazib

berish xizmati” davlat muassasasi rahbarlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo‘lgan intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi.

6. Vazir o‘rinbosari O‘.Sheraliyev, Suv xo‘jaligida istiqbolli loyihalarni shakllantirish bo‘limi boshlig‘i M.Qurbonov hamda Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b N.Xujaqulovlarga:

**ikki hafta muddatda** Buxoro, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent va Xorazm viloyatlari “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari direktorlari bilan birgalikda yildan yilga o‘tuvchi 3 ta va yangidan boshlanuvchi 7 ta obyektlarga moliyalashtirilishini ochish, qurilish ishlarini boshlash hamda moliyalashtirish ochilmagan obyektlarni 2026-yil manzilli ro‘yxatdan chiqarish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-oktyabrdagi 660-sonli qaroriga asosan kanallarni betonlashtirish ishlari yakunlangan obyektlarni foydalanishga topshirish bo‘yicha Davlat qabul hay‘ati dalolatnomalarini o‘z vaqtida rasmiylashtirish ishlarini ta‘minlash;

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 19-martdagi 111-sonli qaroriga asosan 2026-yil manzilli ro‘yxatiga qo‘shimcha kiritilgan 53 ta kanalni betonlashtirish va 28 ta hovuz qurish obyektlarining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilishini va ekspertizadan o‘tkazish ishlarni qarorda belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

7. Vazir o‘rinbosari M.Karimov, Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori v.b S.Astanov, Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xo‘jaqulov, Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va suv kadastr boshqarmasi boshlig‘i J.Abdurazzoqov, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i v.b A.Tagayev, Suv xo‘jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori S.Atabayevalarga Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining tegishli boshqarma va bo‘limlari rahbarlari bilan birgalikda:

**ikki hafta muddatda** sohaga raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiya-larini joriy qilish hamda suv xo‘jaligini raqamlashtirish bo‘yicha vazirlik va idoralar o‘rtasidagi reytingida vazirlikning o‘rnini yaxshilash yuzasidan asoslangan takliflarni ishlab chiqish;

**20 kun muddatda** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida “Aqlli suv”, “Dayver” hamda “Nasos” qurilmalaridan maqsadli va samarali foydalanish maqsadida ushbu qurilmalar bilan ishlash bo‘yicha (*test va amaliy ko‘nikmalar orqali baholash tizimi joriy etish hamda natijalari bo‘yicha xodimlar reytingi shakllantirishni nazarda tutuvchi*) yagona o‘quv dasturi va grafigini ishlab chiqish, vazirga imzolash uchun taqdim qilish, bunda ko‘zda tutilsin.

**bir oy muddatda:**

“Aqlli suv”, “Dayver” hamda “Nasos” qurilmalaridan maqsadli va samarali foydalanish, ularning ishlashi yuzasidan monitoringni kuchaytirish maqsadida onlayn “Dashboard” joriy etish, signal yo‘qolganda avtomatik xabar berish tizimi va hududlar uchun KPI belgilash bo‘yicha taklif kiritish;

1 895 ta tumanlararo va 16 281 ta xo‘jaliklararo gidropostlarning joylashuv nuqtalarini aniq manzilli ro‘yxatini shakllantirish ishlarini to‘liq yakuniga yetkazish;

suv omborlariga kiruvchi va chiquvchi suv hajmi (*10-yillik*) hamda asosiy kanallarda mavjud suv sarfi haqidagi (*5-yillik*) ma‘lumotlarni yagona elektron bazasini yaratish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

qishloq xo‘jaligi yer maydonlariga yetkazib berilgan suv hajmi hisobini konturlar kesimida yuritishga o‘tishni tashkil etish maqsadida “Suv hisobi” axborot tizimini Qishloq

xo'jaligi vazirligining "SropAgro" va Kadastr agentligining "UZKAD" axborot tizimlari bilan integratsiya qilish;

**ikki oy muddatda:**

"Davlat xususiy sheriklik" axborot tizimini yaratish ishlarini yakuniga yetkazish va ushbu axborot tizimni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat-xususiy sheriklik tizimiga integratsiya qilish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari o'rinbosarining 2025-yil 25-dekabrda 3-sonli yig'ilish bayonining 15-bandi topshirig'i, ya'ni, "Investitsiya" va "Qurilish" axborot tizimlarini "Raqamli suv xo'jaligi" yagona platformasida alohida bo'lim sifatida yaratish uchun texnik yo'riqnomasini ishlab chiqish va Raqamlashtirish markaziga taqdim etish vazifasi ijrosini ta'minlash;

suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish maqsadida bugungi kunga qadar ishlab chiqilgan axborot tizimlari O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda "Kiberxavfsizlik markazi"dan ekspertizadan o'tkazilishini so'zsiz ta'minlash;

**yil yakuniga qadar** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-noyabrda 55-sonli topshiriqlar bayoni 26-bandiga muvofiq Suv xo'jaligi tizimini raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan barcha axborot tizimlarni Raqamli hukumatning "Data markazi"ga o'tkazish ishlarini yakunlash vazifalari topshirilsin.

8. Vazirning birinchi o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev va M.Karimov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

**uch kun muddat ichida** mazkur qarorni har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, Davlat rahbari va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar hamda 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosi belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli qilib ta'minlanmaganda, shuningdek, ijro intizomi talablariga rioya qilmagan taqdirda intizomiy jazo chorasi muqarrarligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan mukofot va rag'batlantirish mablag'laridan chegirib qolinishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

Davlat rahbari va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar va topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni **har hafta juma kuni va vazir huzurida har haftaning dushanba kunlari** muhokama qilib borilishini tashkil etish;

**har oyda** Davlat rahbari va Prezident Administratsiyasi rahbarining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar hamda 2026-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) tartibidagi o'tkaziladigan selektor yig'ilishlarida chuqur tahlillar asosida tanqidiy ruhda muhokama qilib borish orqali belgilangan topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi ustidan nazorat, qat'iyatlilik va talabchanlikni kuchaytirish;

2026-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli va to'laqonli ta'minlamagan va axborot taqdim qilmagan, shuningdek, ijrosi kechikishiga yo'l qo'ygan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan taklif (*vazirlik buyruq loyihasini*) kiritib borish vazifalari topshirilsin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, magistral kanallar, suv omborlari va sel-suv omborlari hamda xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari hamda tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari rahbarlariga:

**uch kun muddatda** joriy yil hosili uchun ekiladigan paxta maydonlarida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qiladigan fermer xo‘jaliklari hamda pudratchi korxonalar o‘rtasida shartnoma tuzish ishlarini to‘liq yakunlash va imtiyozli kreditlar ajratish choralari ko‘rish;

**bir hafta muddatda:**

moliyalashtirish ochilgan g‘alla maydonlarida yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish bo‘yicha qurilish ishlarini yakunlash choralari ko‘rish;

2026-yil hosili uchun ekilgan g‘alla maydonlarini sug‘orish uchun egiluvchan quvurlar xarid qilish hamda egiluvchan quvurlar yordamida sug‘orish ishlarini tashkil qilish; nasos stansiyalari va elektrodvigatellarni ta‘mirlash bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish; nasos, elektrodvigatel va energotejamkor qurilmalarni belgilangan tartibda xarid qilish va o‘rnatish hamda majburiy energiya auditga tushgan nasos stansiyalarni auditdan o‘tkazish ishlarini yakunlash;

**1-mayga qadar:**

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “110 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish” loyihasining “Loyiha baholash hujjati”ga Iqtisodiyot va moliya vazirligidan xulosa olish;

Gurlan kanali tizimi 158 km uzunlikdagi kanallarni “Xorazm viloyati Toshsoqa tizimidagi magistral sug‘orish kanallarini qayta tiklash 2-bosqich” loyihasi doirasida amalga oshirish bo‘yicha taklif tayyorlash;

**bir oy muddatda:**

davlat-xususiy sheriklik bo‘limi va shu‘balarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, malakali mutaxassislar bilan to‘ldirilishini ta‘minlash;

davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha investitsiya majburiyatlarini umuman bajarmagan va 50,0 foizdan investitsiya kiritgan xususiy sheriklarga nisbatan amaldagi qonunchilik va bitim shartlariga muvofiq sud organlari orqali penya undirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

**ikki oy muddatda** pudrat korxonalar bilan hamkorlikda suv xo‘jaligi obyektlarida o‘rnatilgan texnik nosoz “Aqli suv”, “Dayver” va “Nasos” qurilmalariga ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini tashkil etgan holda ularni to‘liq ishga tushirilishini ta‘minlash;

**1-iyunga qadar** nasos stansiyalardagi 426 metr bosimli quvurlarni almashtirish va 954 metr bosimli quvurlarni ta‘mirlash ishlarini yakunlash;

**muntazam ravishda** tashkil etilgan suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashuvchi suv xo‘jaligi xodimlaridan iborat servis guruhlari faoliyati samaradorligini ta‘minlash va amalga oshirilayotgan ishlar ustidan kunbay tizimida nazorat o‘rnatish;

10. Mazkur hay‘at yig‘ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni vazirning birinchi o‘rinbosari-Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov hamda vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, O‘.Sheraliyev va M.Karimovlarga yuklab, uni nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay‘at a‘zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to‘lg‘azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

## II. 2026-yilning I choragida O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni baholash haqida

(Xamrayev, Xasanov, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Karimov, Xamrayev)

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limi bosh mutaxassisi A.Hasanov tomonidan Suv xo‘jaligi vaziri va o‘rinbosarlari tomonidan joriy yilning I choragida faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan yuzasidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, tahlil va muhokama qilib chiqib, 2026-yilga belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va indikatorlarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ularning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay‘at yig‘ilishi

### Qaror qildi:

1. Suv xo‘jaligi vaziri va o‘rinbosarlari tomonidan 2026-yil I choragi uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar **ma‘lumot uchun qabul qilinsin.**

2. 2026-yilning I choragi yakunlari bo‘yicha joriy yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini ta‘minlash yuzasidan:

Vazirning birinchi o‘rinbosari Z.Ishpulatovning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 9 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi 100 foizni;

Vazirning o‘rinbosari R.Qarshiyevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 8 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi 100 foizni;

Vazirning o‘rinbosari O‘.Sheraliyevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 7 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi 100 foizni;

Vazirning o‘rinbosari M.Karimovning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 4 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi 100 foizni tashkil etganligi inobatga olinsin.

Suv xo‘jaligi vaziri va vazirining o‘rinbosarlarining 2026-yilning I choragi yakunlari bo‘yicha eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) “a’lo” deb baholansin.

Belgilab qo‘yilsinki, hisobot davrida faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari reja ko‘rsatkichlarini baholash reytingi natijalariga ko‘ra, faoliyat samaradorligi qoniqarsiz deb topilgan taqdirda vazir o‘rinbosarlarining mas‘uliyati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritiladi.

3. Vazirning birinchi o‘rinbosari Z.Ishpulatov, vazir o‘rinbosarlari O‘.Sheraliyev, R.Qarshiyev va M.Karimovlarga 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini so‘zsiz ta‘minlashda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-250-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-21-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-21-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan prognoz ko‘rsatkichlarga asosiy e‘tiborni qaratish;

vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro‘yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida 45 kun oldin boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag‘ talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha birinchi navbatda shug‘ullanib, ularni to‘laqonli va sifatli ta‘minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo‘yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani Vazir o‘rinbosarlari, lozim bo‘lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

4. Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limi bosh mutaxassisi A.Xasanovga:

***har chorak yakuni bilan:***

keyingi oyning 5 sanasiga qadar 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)ning hisobot davri (choraklik) yakuni bo‘yicha natijalarni (ma‘lumot va tahliliy materiallarni) hay‘at yig‘ilishi muhokamasiga kiritib borilishini ta‘minlash;

keyingi oyning 10 sanasiga qadar amalga oshirilgan ishlarni baholash yakunlarini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining “samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritish hamda unda Vazir va vazir o‘rinbosarlari faoliyatining samaradorligi reytingini baholash borasida hamkorlikda ishlash;

keyingi oyning 15 sanasiga qadar Vazir va vazir o‘rinbosarlarining faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining natijalari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Axborot xizmati boshlig‘i Sh.Suyunov Suv xo‘jaligi Vazir va vazir o‘rinbosarlarining 2026-yilning I choragi faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, tele va radiokanallar, vazirlikning rasmiy veb-sayti, Vazirlikning Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay‘at a‘zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to‘lg‘azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Hay‘at yig‘ilishi yakunida hay‘at raisi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga bugungi hay‘at yig‘ilishi qabul qilgan qaror asosida ***bir kun muddatda*** joylarda 2026 yilning I choragi davomida amalga oshirilgan ishlar,

yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalarining har oyga (*kunlik*) qilib ish rejalarini ishlab chiqish va uning ijrosini tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Vazir



Sh.Xamrayev